

Sanoat Korxonalarida Iqtisodiy Samaradorlikni Baholash Usullari

Ibragimov Zukhriddin Sayfutdinovich

Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi, boshqarma boshlig'i

Annotation: Studying the semantic field of “ma’naviyat” and its descriptive meanings in different dictionaries written from 1981 till the present time has been analysed in this article. The works carried out on the similar topics are also discussed and their differences are analyzed.

Keywords: Lexicographic analysis, dictionary meaning, descriptive dictionary, spirituality, lexical units, semantic signs.

Bugungi kunda mamlakatimizda neftgaz sanoati korxonalaridagi iqtisodiy faoliyatni zamonaviy ko‘rinishda tashkil etish, tashkiliy-iqtisodiy hamda texnologik tadbirlar tarkibini kengaytirish kabi mexanizmlarni takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyotida sanoatning ahamiyati tobora oshib borayotgani bilan bog‘liq holda, ushbu sohadagi korxonalarining samarali faoliyat yuritishi ularning milliy iqtisodiyotga qo‘shadigan hissasini oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga neftgaz tarmog‘ining o‘shirishini e‘tiborga olgan holda erishilayotgan iqtisodiy samaradorlikni baholash usulini takomillashtirish, mavjud mexanizmlar faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda raqamlashtirish va xalqaro bozordagi darajaga mos mahsulotlarni yetkazib berish sharoitlarini e‘tiborga olgan holda me‘yoriy chegaralarni zamonaviy tendensiyalarga asoslanib takomillashtirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamdagi ishlar olib borilmoqda.

Sanoat korxonalarida samaradorlikni muntazam baholash orqali korxonalar o‘z resurslarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, mahsulot sifatini yaxshilash va narxlarni raqobatbardosh darajada ushlab turishni ta‘minlaydi.

Sanoat korxonalarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari:

- dinamik muvozanat - tizimning barcha elementlar o‘rtasidagi optimal munosabatlar, atrof-muhit omillariga qarshilik bilan tavsiflanadi;
- ustuvor rivojlanish - rivojlanishning yanada istiqbolli yo‘nalishini tanlash;
- o‘zgaruvchanlik - barcha tarkibiy elementlarni bosqichma-bosqich takomillashtirishni o‘z ichiga oladi;
- moslashish- ta‘sir etuvchi omillarga nisbatan yuqori elastiklik namoyon qilish.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholashda bir nechta usullar mavjud bo‘lib, ulardan biri *benchmarking* hisoblanadi. Benchmarking – bu o‘xshash yoki bir xil sohada faoliyat yurituvchi korxonalarining samaradorligini solishtirish va ularning eng yaxshi natijalarini tahlil qilish orqali o‘z faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan usuldir. Bu jarayonda korxonalar turli ko‘rsatkichlar asosida bir-birining ishlab chiqarish, resurslardan foydalanish va boshqaruv samaradorligini o‘rganib, o‘zlarining natijalarini yaxshilash bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlaydilar.

Benchmarking usuli korxonalariga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- Eng yaxshi amaliyotlarni o‘zlashtirish: Eng samarali natijalarga erishgan korxonalarining ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini o‘rganish orqali ulardan ilg‘or tajribalarni o‘rganish va o‘zlashtirish.
- Xatolarni kamaytirish: O‘xshash korxonalarining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish orqali xatolarni aniqlash va ularni takrorlamaslik.

- Samaradorlikni oshirish: Korxonaning o'ziga xos muammolari va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan yangi qarorlar qabul qilish imkoniyati.

Xarajatlar va foydalar tahlili (CBA)- iqtisodiy samaradorlikni baholashning yana bir usuli hisoblanadi. Xarajatlar va foydalar tahlili (Cost-Benefit Analysis, CBA) – sanoat korxonalarida yangi investitsiyalar yoki loyihalarni amalga oshirishning manfaatli yoki manfaatsizligini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu usul orqali korxonada yangi loyiha bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni va kelajakda kelishi mumkin bo'lgan foydalarni solishtiradi va tahlil qiladi.

CBA quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

1. Barcha xarajatlarni aniqlash. Loyihaga sarflanadigan to'liq xarajatlar hisoblanadi, buga moliyaviy resurslar, ishchi kuchlar, materiallar va boshqa resurslarning qiymatlari kiradi.
2. Foydalarni baholash. Loyihani amalga oshirish natijasida keladigan iqtisodiy va iqtisodiy bo'lmagan foydalar baholanadi. Bunda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, ishchi kuchi va energiya xarajatlarini optimallashtirish kabi omillar inobatga olinadi.
3. Tariflarni solishtirish: Ushbu jarayonda xarajatlar va foydalar o'zaro solishtiriladi. Agar foydalar xarajatlardan yuqori bo'lsa, loyiha samarali va amaliy hisoblanadi. Agar foydalar xarajatlardan past bo'lsa, loyiha yoki investitsiya manfaatli emas, deb baholanadi.

Aktivlarning rentabilligi (Return on Assets, ROA) va investitsiyalarning rentabilligi (Return on Investment, ROI) sanoat korxonalarining samaradorligini oshirishda va aktivlardan samarali foydalanish darajasini aniqlashda muhim moliyaviy ko'rsatkichlar hisoblanadi.

1. Aktivlarning rentabilligi (ROA):

- ROA korxonaning umumiy aktivlaridan qanchalik samarali foydalanayotganini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$ROA = \frac{\text{Sof daromad}}{\text{Umumiy aktivlar}} * 100\%$$

- ROA yuqori bo'lsa, korxonada o'z aktivlaridan samarali foydalanib, yuqori foyda olayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, bu ko'rsatkich korxonaning umumiy resurslaridan qanchalik samarali foydalanayotganligini baholash imkoniyatini beradi.

2. Investitsiyalarning rentabilligi (ROI):

ROI korxonaga kiritilgan investitsiyalar bo'yicha qay darajada foyda olayotganini ko'rsatadi va quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$ROI = \frac{\text{Investitsiyadan kelgan foyda}}{\text{Investitsiyalar hajmi}} * 100\%$$

ROI investitsiyalarning samaradorligini aniqlashda asosiy ko'rsatkich bo'lib, u kiritilgan kapitalning qanchalik manfaat keltirganini ko'rsatadi. Agar ROI yuqori bo'lsa, investitsiyadan foyda katta bo'ladi va ushbu investitsiya manfaatli hisoblanadi.

Ushbu ko'rsatkichlar korxonalariga o'z resurslaridan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatini beradi. Sanoat korxonalarida uchun samaradorlikni muntazam baholab borish muhim bo'lib, bu ularga faoliyat samaradorligini oshirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Tizimli samaradorlik baholash sohadagi qarorlarni oqilona qabul qilish va resurslarni yanada samarali foydalanishga yo'naltirishda muhim omildir.